



## TIBBIYOT XODIMLARINING KASBGA DOIR SIRI VA QAYSI HOLATLARDA BU TIBBIY SIR QONUNGA MUVOFIQ OSHKOR ETILISHI MUMKIN

**Yusupov Hamza Safarovich**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Tibbiyot fakulteti ichki kasalliklar kafedrasи o'qituvchisi

**Kalit so'zlar:** Sir, sir saqlash, shifokorlik siri, shifokorlik sirining oshkor etilishini qonuniy shartlari. yatrogen kasalliklar, egogeniya, shifokorlik qasamyodi, evtanaziya.

**Annotatsiya:** Ushbu maqoladi tibbiyot xodimlarining kasbga doir siri, bemorga tegishli sirning tibbiyot xodimlari tomonidan saqlanish kafolatlari, qanday holatda bu sirni bemor qarindoshlari yoki vakolatli organlarga xabar berilish tartibi to'g'risidagi masalalar bayon etilgan.

**Sir nima?** - O'zgalardan maxfiy tutilgan yoki o'zgalarga noma'lum bo'lgan biror ish, gap, narsa, xolat va boshqalar. Sirning inson kasbiga ko'ra bir necha turlari farqlanadi. Masalan: Harbiy sir, davlat siri, tibbiyot xodimlarining siri, quruvchilar siri, naqqoshlar siri....

**Sir saqlash-** o'zga insonlarning sirini saqlash, aybini yashirish insonning ijobiy fazilatlaridan biri sifatida tarixiy manbalarda bayon etilib, bu insonlar jamiyatda qadrlanib kelinadi.

**Shifokorlik siri** - tibbiyot xodimi tomonidan bemorning sog'lig'i to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarning boshqalarga oshkora etilmasligidir. Bemorga tegishli sirni boshqalarga oshkor etilishi, bemorning qadr-qimmatini kamsitilishidan tashqari, tuzatib bo'lmas asoratlarga olib borishi mumkin. ..

**Tibbiyot xodimi (shifokorlik) siri- O'zbekiston Respublikasida qonun bilan mustahkamlangan.** (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida qonuni 29.08.1996 yildagi 265-I-son 4- yakunlovchi bo'lim, 45-modda)

Fuqaroning tibbiy yordam so'rab murojaat qilganligi, uning sog'lig'ining holati, kasalligiga qo'yilgan tashxis xususidagi hamda uni tekshirish va davolash davomida olingan boshqa ma'lumotlar shifokor sirini tashkil etadi.

SHifokor siri hisoblangan ma'lumotlardan o'qish hamda kasb-korga, xizmatga doir va boshqa xil vazifalarni bajarish paytida xabardor bo'lib qolgan shaxslarning bu ma'lumotlarni fuqaro yoki uning qonuniy vakilining roziligidisiz oshkor qilishiga yo'l qo'yilmaydi, ushbu moddaning **uchinchи qismida** belgilangan hollar bundan mustasno.



SHifokor siri hisoblangan ma'lumotlarni fuqaro yoki uning qonuniy vakilining rozilgisiz berishga quyidagi sabablarga ko'ra yo'l qo'yiladi:

ahvoli og'irligi sababli o'z xohish-irodasini bildira olmaydigan fuqaroni tekshirish va davolash maqsadida;

yuqumli kasalliklar tarqalishi, yalpi zaharlanish va zararlanish xavfi tahdid solganida;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv, tergov organlarining, prokuraturaning va sudning ishni sudga qadar yuritish yoki sud tekshiruvi o'tkazilishi munosabati bilan so'rovi bo'yicha;

o'n to'rt yoshga to'lмаган voyaga etmagan shaxsga yordam ko'rsatilayotganda uning ota-onasi yoki qonuniy vakillarini xabardor qilish uchun;

fuqaroning sog'lig'iga g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki baxtsiz tasodif natijasida zarar etkazilgan deb gumon qilishga asoslar mavjud bo'lganida.

SHifokor siri hisoblangan ma'lumotlar qonunda belgilangan tartibda berilgan shaxslar shifokor sirini oshkor qilganlik uchun qonunga muvofiq tibbiyat va farmatsevtika xodimlari bilan bab-baravar javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2019 yil 17 iyuldag'i 161-son buyrug'ida "Tibbiyat xodimlarining odob-axloq kodeksi" miyorlari keltirilgan bo'lib, tibbiyat siri to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada to'ldiradi va sharhlaydi.

### **5-bob. Tibbiyat xodimi va jamiyat**

8. Tibbiyat xodimi siri hisoblangan ma'lumotlarni fuqaro yoki uning qonuniy vakilining rozilgisiz berishga ahvoli og'irligi sababli o'z xohish-irodasini bildira olmaydigan fuqaroni tekshirish va davolash maqsadida, yuqumli kasalliklar tarqalishi, yalpi zaharlanish va zararlanish xavfi tahdid solganida, tergov yoki sud tekshiruvi o'tkazilishi munosabati bilan surishtiruv va tergov organlarining, prokuratura va sudning so'rovi bo'yicha, o'n sakkiz yoshga to'lмаган voyaga etmagan (O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi 139-sonli Qonuniga asosan) shaxsga yordam ko'rsatilayotganda uning ota-onasi yoki qonuniy vakillarini xabardor qilish uchun, fuqaroning sog'ligiga g'ayriqonuniy xatti-harakatlar yoki baxtsiz tasodif natijasida zarar etkazilgan deb gumon qilishga asoslar mavjud bo'lganida yo'l qo'yiladi.

### **6-bob. Tibbiyat xodimi va bemor munosabatlari**

1. Tibbiyat xodimlariga bemor va uning qarindoshlarining iltimosiga ko'ra bemorga evtanaziya qo'llash, shu jumladan, o'limni har qanday vositalar yoki harakatlar (harakatsizlik) bilan sun'iy tezlashtirishi qat'iyan taqiqlanadi.

### **7-bob. Tibbiyat xodimi va bemorning qarindoshlari**

1. Tibbiyat xodimi bemor qarindoshlarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi va ularning ruhiy xolatini inobatga olgan holda muloqatda bo'lishi,

bemorning sog‘ligiga g‘amxo‘rlik qilishga undashi, ularning shaxsiy hayoti ma’lumotlarining sir saqlanishiga bo‘lgan huquqini hurmat qilishi lozim.

**Qanday xolatlarda tibbiyat xodimlari bemorga tegishli ma’lumotlarni qonuniy oshkor etilishiga ruxsati etiladi?**

Bemordagi kasallik jamiyatga xavf soluvchi, shuningdek jinoyatchilarni aniqlash maqsadida tegishli organ vakillariga xabar berishga majburdir:

- OITS aniqlanganda, OITS markazi ;
- venerik kasalliklar(zaxm, suzak...) aniqlanganda teri- tanosil kasalliklar dispanseriga;
- o‘ta xavfli(kuydirgi, vabo, o‘lat, koronovirus...) yoki boshqa tez tarqaluvchi yuqumli kasalliklarda Sanitariya va osoyishtalik boshqarmasi- davlat sanitariya nazorat markazi(DSNM)ga;
- o‘tkir ovqatdan zaharlanishlarda Sanitariya va osoyishtalik boshqarmasi- davlat sanitariya nazorat markazi(DSNM)ga;
- o‘pka silining ochiq formasi (yuqumli BK+) topilganda -sil kasalliklar dispanseri va davlat sanitariya nazorat markazi(DSNM)ga;
- ruhiy kasalliklar aniqlanganda ruhiy kasalliklar dispanseriga;
- avtoavariya va kriminal xolatlarda ichki ishlar boshqarmasiga;
- spirtli ichimlik yoki guyohvand modda iste’mol qilib tushganlarni narkolgiya dispanseri xodimlariga ma’lumot beriladi.

Ko‘p uchrovchi xolat: bemorda tuzalmaydigan kasallik aniqlandi. Masalan: rak topilgan, bu to‘g‘risida bemorning o‘ziga aytish mumkinmi? Qarindoshlariga xolatni tushuntirib, imkon darajasida bemorning o‘ziga aytmaslik kerak, chunki bemor tushkinlikka tushadi, psixologiyasi o‘zgarib va davolanishga bo‘lgan ishonchi so‘nadi. Bemor sog‘lig‘i to‘g‘risidagi haqiqatni bilib qoldi, bu xolatda nima qilish kerak? Bemorning zamonaviy davolash usullarini qo‘llab davolanishiga ishontirish kerak.

Bemor sog‘ligi to‘g‘risidagi xolat –ahvolining og‘ir yoki engillagini qarindoshlaridan yashirmaslik kerak, Agar bemorni sog‘ligini qarindoshlariga yaxshi(engil) deyilsa va bemor vafot etsa, qarindoshlari tomonida kuchli e’tirozlarga sabab bo‘ladi. Bemorning ahvoli engil bo‘lib, qarindoshiga og‘ir deyilsa va sog‘ayib ketsa, e’tiroz bo‘lmaydi, lekin bu tibbiyotda giperdiagnostika deyiladi, yoki ortiqcha vaxima ko‘tarish deyiladi.

Ba’zi insonlar tabiatan o‘z kasalligini boshqalar bilishini –ko‘rishini istashmaydi, hatto ularda oddiy shamollash bo‘lsa ham, shu sababga vrach qabuliga borganini imkon darajasida boshqalardan sir tutishga harakat qiladi. Vrach faqat sir saqlashni emas, bemor psixologiyasidagi bu xislatni ham sezishi va bemorning qarorini qo‘llab –

quvatlashi va u ning tashrifini va kasalligini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sir saqlashi lozim.

Ba’zan vrach o‘z yo‘nalishiga ko‘ra (bemorning kasalligi urologik, ginekologik) to‘g‘risida noqulay savollar berishga majbur, zero bu ma’lumotlar bemorga to‘g‘ri diagnoz quyilishi va davolanishiga zarur bo‘lishi mumkin. Bu muloqat davomida vrachga oshkor bo‘lgan bemorning sirini boshqalarga oshkor etilishi, bemorning nafsoniyatiga tegishi, kamsitilishiga olib keladi, SHu sababli bemorga tegishli shaxsiy har qanday ma’lumot vrach tomonidan sir tutilishi lozim.

Bemor bilan muloqatda bo‘lish, tekshirish va davolash vaqtida vrach turli standart va nostandard xolatlarga duch kelishi mumkin. Masalan bemorni ko‘richagini operatsiya qilish lozim, shuningdek bemorda yo‘ldosh qandli diabet kasalligi ham bor. Bu xolatda bemor va qarindoshlariga asosiy kasallik-ko‘richagi operatsiya qilish zarurligini, lekin yo‘ldosh kasalligi- qandli diabet jarohatini bitishiga ta’sir etishi mumkinligi ham tushuntirishga to‘g‘ri keladi.

Tajriba ishslash mobaynida oshib boradi, YOsh vrach ish vaqtida xatoga yo‘l quydi, Agar tajribali vrach **o‘z vaqtida** yordam ko‘rsatib, xatoni bartaraf etishda yordam berib, xatosini ko‘rsatib, qayta takrorlamasligi to‘g‘risda ogohlantirish bersa, xato qilgan yosh vrach kelgusida bu xatoni takrorlamaydi, Agar bu xatoni barchaga oshkor etilsa, yosh vrach kelgusida ishdan kungli qolishi, yoki shu ish( masalan operatsiya) ga qayta qo‘l urmasligi mumkin. Bu erda bemorning o‘limi bilan bilan tugaydigan xolat nazarga tutilmadi. Bemor o‘limi bilan bog‘liq xatoliklarda vrach qonunga asosan jazolanishi lozim.

**Yatrogen kasalliklar** - tibbiyot xodimlari tomonidan insonlar sog‘lig‘iga bilib-bilmasdan etkazilgan zarar. Bu tibbiy xatoliklar turkumiga ham kiritiladi. Tibbiy xodim profilaktika, tashxislash, davolash jarayonlarida yuzaga kelib, biz fakat psixologik turi ko‘rib chiqamiz. Aytaylik bemorni tekshirish vaqtida biror kasallik(masalan rak)ga shubha qilindi, buni bemorga ochiq aytib onkologiya shifoxonasiga yubordingiz va u erdan sog‘om deb xulosa berishdi. Vrachlik sirini saqlash qoidasiga ko‘ra, bemorga bu bir taxmin, balkim men xato qilayotgan bo‘lishim mumkin, bir onkologiyaga ham tekshiruvga borib kelin-chi keyin solishtirib ko‘ramiz deb yuborish lozim. 1-xolatdagi noto‘g‘ri tashxis quyilib onkologiya borib sog‘om ekaligi aniqlangacha bo‘lgan vaqt davomida o‘sha inson psixologik tushkun xolatda bo‘lgan va bunga vrach aybdor.

**Egogeniya** – bemorning o‘z kasalligini bilgandan so‘ng tushkunlikka tushishi natijasida kelib chiqqan yatrogen kasallik. Mana shuning uchun ham ayrim kasalliklar bemorlardan sir tutilib (agar so‘rasa boshqa engilrok kasal turi aytildi) boriladi va shuning uchun ham bemorlar qo‘liga kasallik tarixlari ham berilmasligi kerak bo‘ladi, kasalligi to‘g‘risida qarindoshlariga tushuntirilib aytildi.

O‘zbekiston Respublikasi shifokorining qasamyodida shifokor sirini saqlashga umrimning oxirigacha sodiq qolishga qasamyod qilaman.

SHifokorlar qasamyodni buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.” degan jumla bilan yakunlanadi.( O‘zbekiston Respublikasi

Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonuni 29.08.1996 yildagi 265-I-son yakuniy 4- yakunlovchi bo‘lim, 44-modda)

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tibbiyat xodimi (shifokorlik) siri - (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonuni 29.08.1996 yildagi 265-I-son 4- yakunlovchi bo‘lim, 45-moddasi);
2. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2019 yil 17 iyuldaggi 161-son buyrug‘iga ilovasi 5,6,7 boblari. “Tibbiyat xodimlarining odob-axloq kodeksi “ ning tibbiyat siriga oid moddalari;
3. Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonuni 29.08.1996 yildagi 265-I-son yakuniy 4- yakunlovchi bo‘lim, “SHifokorlik siri” to‘g‘risidagi 44-moddasi.